

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA RITORIKANI O'RGATISHGA TAYYORLASHNING KONSEPTUAL MODELINI

Shamuratova Xurliman Kutlimuratovna,

NDPI o'qituvchisi

E-mail: shamuratovaxurliman777@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlashning konseptual modeli bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligi, kommunikativ madaniyati, metodik mahorati va innovasion faolligini tizimli rivojlantirishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: ritorik qobiliyat, tadqiqiy-bilish, konseptual model, kasbiy kompetentligi, kommunikativ madaniyati, metodik mahorati, innovasion faollik.

Аннотация. В статье рассматривается концептуальная модель подготовки студентов педагогических высших учебных заведений к обучению риторике детей дошкольного возраста, направленная на системное развитие профессиональной компетентности будущих воспитателей-педагогов, их коммуникативной культуры, методического мастерства и инновационной активности.

Ключевые слова: риторические способности, исследовательско-познавательная деятельность, концептуальная модель, профессиональная компетентность, коммуникативная культура, методическое мастерство, инновационная активность.

Abstract. The article examines the conceptual model of preparing students of pedagogical higher education institutions to teach rhetoric to preschool children. It is aimed at the systematic development of the professional competence of future educators, their communicative culture, methodological skills, and innovative activity.

Keywords: rhetorical skills, research-cognitive activity, conceptual model, professional competence, communicative culture, methodological skills, innovative activity.

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonini rivojlantirishga kompetensiyaviy yondashuv asosida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bolalarda notiqlik – ritorik qobiliyatlarni shakllantirish orqali ularning intellektual anglash malakalarini, tadqiqiy-bilish faoliyatini va samarali refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlashning konseptual modeli bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligi, kommunikativ madaniyati, metodik mahorati va innovasion faolligini tizimli rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraladi. Ushbu model bo'lajak mutaxassislarining nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki amaliy faoliyatga tayyorligini, bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatini hamda zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritish salohiyatini kompleks tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, konseptual model oliy ta'lim muassasalarida kasbiy

tayyorgarlik jarayonini maqsadli loyihalash, tashkil etish va baholashning ilmiy asoslangan vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda pedagoglarni kasbiy tayyorlash, kommunikativ kompetensiya va ritorika o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, L.M. Mitina o'qituvchi shaxsiyati, pedagogik faoliyat va muloqot uyg'unligiga asoslangan modelni taklif etib, kasbiy refleksiya va kommunikativ madaniyatning muhimligini ta'kidlaydi. A.K. Markova pedagog kasbiy faoliyatini bilim, ko'nikma, kasbiy pozitsiya va shaxsiy sifatlar birligi sifatida ko'rib, motivatsiya va amaliy tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratadi. N.V. Klyueva esa o'qituvchini ritorikani o'rgatishga tayyorlashda maqsadli, mazmunli va protsessual komponentlarning yaxlit tizimini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pedagogik jarayonni tizimli va ilmiy asosda yoritishga imkon beruvchi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy (tahlil, sintez, umumlashtirish, modellashtirish) hamda empirik (kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat va ilg'or tajribalarni o'rganish) metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar hamda ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur model nazariy-metodologik asoslar, mazmunli komponentlar, amalga oshirish mexanizmlari va natijaviy ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda birlashtiradi. Unda pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlari yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi: maqsadlar ta'lim mazmunini belgilaydi, mazmun esa tegishli metod va texnologiyalarni tanlashga asos bo'ladi, amalga oshirish mexanizmlari belgilangan vazifalarning izchil bajarilishini ta'minlaydi, natijaviy ko'rsatkichlar esa jarayon samaradorligini baholash imkonini beradi. Bunday tizimli yondashuv tayyorgarlik jarayonida tartiblilik, izchillik va uzviylikni ta'minlab, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning ritorik kompetentligi, metodik tayyorgarligi va kasbiy faolligini yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, konseptual model maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Ya'ni jamiyat taraqqiyoti, globallashtirish jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va ta'lim sohasidagi innovasion o'zgarishlar sharoitida bolalarni erta yoshdanoq samarali muloqot qilishga, mustaqil fikrlashga va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Zero, bugungi kunda raqobatbardosh va intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirish uchun shaxsning kommunikativ madaniyati, tashabbuskorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi ilk bolalik davridan boshlab rivojlantirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan,

maktabgacha ta'lim muassasalari faqat parvarish va umumiy tarbiya maskani emas, balki bolaning shaxsiy, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishining dastlabki institusional muhiti sifatida namoyon bo'ladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida bola turli manbalardan ma'lumot qabul qiladi, turli muloqot muhitlariga kirishadi va o'z fikrini ifoda etish ehtiyojiga duch keladi. Shu sababli unda axborotni anglash, tinglash, savol berish, javob qaytarish, muloqot qoidalariga rioya qilish va o'z nuqtai nazarini madaniyatli bayon etish kabi kompetensiyalar erta yoshdan shakllantirilishi lozim. Bunday vazifalarni amalga oshirish esa bevosita tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

Shuning uchun konseptual model bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha ta'lim tizimining ana shu yangi talablariga javob bera oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. Unda talabalarda bolalar nutqini rivojlantirish, erkin muloqot muhitini yaratish, ijodiy faollikni rag'batlantirish, axloqiy muloqot me'yorlarini singdirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari shakllantiriladi. Ya'ni bolalarda nutqiy rivojlanish, erkin fikrlash, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish vazifalari mazkur modelning strategik yo'nalishlarini belgilaydi. Nutqiy rivojlanish orqali bolalarning lug'at boyligi, fikrni aniq ifodalashi, to'g'ri talaffuzi va mantiqiy bayon qilish qobiliyati rivojlanadi. Erkin fikrlash esa ularda mustaqil xulosa chiqarish, savol berish, o'z nuqtai nazarini bildirish va muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Muloqot madaniyati orqali salomlashish, tinglay bilish, navbat kutish, fikrni hurmat bilan ifoda etish va jamoada hamkorlik qilish kabi ijtimoiy xulq normalari qaror topadi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirish bolalarning jamoaviy o'yinlar, davra suhbatlari, sahnalashtirish va hamkorlik faoliyatlarida tashabbuskor bo'lishini ta'minlaydi. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish esa ertak to'qish, rolli o'yinlar, obrazli fikrlash, hikoya yaratish va yangi g'oyalar ilgari surish jarayonida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, konseptual model faqat bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash vositasi emas, balki kelajak avlodning intellektual, kommunikativ va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik pedagogik tizim sifatida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlashning konseptual modelini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik adabiyotlarda mavjud bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modellarini tahlil qilish muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Chunki turli olimlar tomonidan taklif etilgan modellar pedagogik tayyorgarlik jarayonining maqsadi, mazmuni, tuzilmasi, amalga oshirish mexanizmlari va natijaviy ko'rsatkichlarini turlicha yoritadi. Shu bois mazkur ilmiy qarashlar tahlili asosida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlashning mualliflik konseptual modelini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashga doir ko‘plab modellar mavjud bo‘lib, ular tayyorgarlik jarayonining shaxsiy, kognitiv, amaliy va kommunikativ jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Xususan, L.M. Mitina bo‘lajak tarbiyachi-pedagog mehnatining modelini o‘zaro bog‘liq uchta asosiy sohadan iborat deb hisoblaydi: **tarbiyachi-pedagog shaxsiyati, pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot**. Uning ta’kidlashicha, tarbiyachi-pedagog shaxsiyatining tarkibiy qismlariga pedagogik maqsad qo‘ya olish, pedagogik fikrlash, pedagogik refleksiya, pedagogik xushmuomalalik va pedagogik yo‘nalganlik kiradi. Bu jihatlar bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o‘rgatishga tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish va nutqiy rivojlanishni ta’minlash tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlariga bevosita bog‘liqdir.[1]

L.M. Mitina modelida o‘quv-bilish faoliyati ham alohida o‘rin egallaydi. Unda o‘quv motivatsiyasi, o‘quv vazifalarini belgilash, amaliy harakatlar orqali ularni hal qilish, nazorat va baholash, o‘zini o‘zi boshqarish hamda o‘zini o‘zi baholash kabi bosqichlar ko‘zda tutiladi. Mazkur yondashuv bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning ritorik kompetentligini shakllantirish jarayonida ham muhim hisoblanadi. Chunki talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi, balki ularni amaliy mashg‘ulotlar, mikro o‘qitish, rolli o‘yinlar va pedagogik amaliyot orqali mustahkamlashi lozim.

A.K. Markova tomonidan ishlab chiqilgan tarbiyachi-pedagog faoliyati modeli ham kasbiy tayyorgarlikni tizimli tashkil etish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Olim tarbiyachi-pedagog faoliyati tarkibiga kasbiy bilimlar, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy pozisiya va munosabatlar, shuningdek, shaxsiy xususiyatlarni kiritadi.[2] Bu yondashuvdan kelib chiqqan holda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o‘rgatishga tayyorlash jarayonida talabalarda ritorika nazariyasi, bolalar psixologiyasi, nutq madaniyati, pedagogik muloqot, kasbiy mas’uliyat va ijtimoiy faollikni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilanadi.

N.V. Klyueva va G.I. Sorokina tadqiqotlarida bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash modeli maqsadli, mazmunli va prosessual bloklardan iborat tizim sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, maqsadli blok bo‘lajak mutaxassisning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish, maxsus bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda o‘qitish sohasiga oid uslubiy tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiladi.[3] Mazkur yondashuvni ritorik ta’limga tatbiq etganda, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda bolalar nutqiy rivojlanishini tashkil etish, ritorik mashg‘ulotlar mazmunini loyihalash va samarali metodlarni tanlash qobiliyatini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning samarali modeli quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarga tayanadi: motivasion, kognitiv, operasion va refleksiv komponentlar. Shu nuqtai nazardan, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o‘rgatishga tayyorlashning konseptual modeli ham mazkur komponentlar

asosida quriladi. Unda talabalarda kasbiy qiziqish va ijobiy motivasiyani shakllantirish, ritorika va pedagogikaga oid bilimlarni egallash, amaliy mashg'ulotlar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini yuksaltirish nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, mazkur konseptual model maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Jamiyat taraqqiyoti, globallashtirish jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va ta'lim sohasidagi innovasion o'zgarishlar sharoitida bolalarni erta yoshdanoq samarali muloqot qilishga, mustaqil fikrlashga va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu sababli model bolalarda nutqiy rivojlanish, erkin fikrlash, muloqot madaniyati, ijodiy faollik va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagog kadrlarni tayyorlashga yo'naltiriladi.

Mazkur konseptual model pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga samarali tayyorlash jarayonining maqsad, mazmun, texnologiya, shart-sharoit va natijaviy komponentlarini o'zaro uzviy bog'liq holda ifodalaydi. Model bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlashning konseptual modelida **ijtimoiy buyurtma bloki** boshlang'ich va etakchi komponent sifatida qaraladi. Chunki har qanday pedagogik tizim, avvalo, jamiyat taraqqiyoti, davlat siyosati, iqtisodiy ehtiyojlar va shaxs rivojlanishi bilan belgilanadigan ijtimoiy talablarga tayanadi.

Ijtimoiy buyurtma – bu jamiyat, davlat, ota-ona, mehnat bozori va ta'lim muassasalarining zamonaviy pedagog kadrlarga nisbatan qo'yayotgan aniq talablari majmuasidir. Ushbu talablar ta'lim mazmuni, o'qitish texnologiyalari va kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini belgilab beradi.

Mazkur tadqiqot nuqtai nazaridan ijtimoiy buyurtma – maktabgacha ta'lim tizimi uchun bolalar nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlay oladigan, ritorika elementlarini samarali o'rgata oladigan yuqori malakali tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash zaruratidir.

Demak, konseptual modeldagi ijtimoiy buyurtma bloki jamiyat va davlat tomonidan maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni ifoda etadi. Uning asosiy mazmuni – bolalarda nutqiy madaniyat, erkin fikrlash va muloqot qobiliyatini rivojlantira oladigan yuqori malakali tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Shu jihatdan mazkur blok butun modelning strategik asosi hisoblanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ritorikani o'rgatishga tayyorlash jarayoni kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning

kasbiy kompetentligi, kommunikativ madaniyati, metodik mahorati va innovatsion faolligini rivojlantirish konseptual modelning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan konseptual model ijtimoiy buyurtma, nazariy-metodologik asoslar, mazmunli komponentlar va natijaviy ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Bu model bo'lajak pedagoglarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy faoliyatga tayyorlash, bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularning nutqiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994. –216 с.
2. Маркова, А.К. Психология труда учителя: книга для учителя / А.К. Маркова. -М.: Просвещение, 1993. - 193 с.
3. Ключева, Н.В. Формирование профессиональной готовности учителя начальных классов к обучению младших школьников риторике: дис. ... канд. пед. наук / Н.В. Ключева. - Курск, 2002. - 148 с.

